

**TADBIRKORLIK SU'EKTLARINI RAQOBATBARDOSHLILIGINI
OSHIRISHDA IQTISODIY INFRATUZILMALARDAGI
O'ZGARISHLARNING TA'SIRINI**

Soloxitdinov Faxritdin Murodovich

*O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining
Namangan viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i*

Mirzabayev Xusniddin Muxamadjonovich

Namangan muhandislik texnologiya instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiy infratuzilmasining milliy va xalqaro raqobatbardoshlikka ta'siri borasida fikr yuritiladi. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining eng asosiy jabhalaridan biri – bu tadbirkorlik subyektlari hisoblanib, infratuzilma esa unlarni rivojlantiruvchi eng asosiy omillardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan davlatlarda infratuzilma uchun zarur bo'lgan kapital miqdori va infratuzilmaga investitsiyalar uchun zarur bo'lgan budget resurslari o'rtasidagi salbiy farq kengayib bormoqda.

Kalit so'zlar: Infratuzilma, tabiiy boyliklar, raqobatbardoshlilik, logistika, tadbirkorlik, yo'lovchi tashish.

KIRISH.

Turli mintaqalarda avj olayotgan ziddiyatlar bois an'anaviy logistika yo'nalishlari mutlaqo o'zgaryapti. Mahsulot yetkazish zanjiridagi uzilishlar xomashyo va iste'mol tovarlarining qimmatlashishiga sabab bo'lyapti. Bularning barchasi – mavjud infratuzilmaga bo'lgan yuklamani keskin oshiradi va global iqtisodiy taraqqiyotga katta to'siq bo'ladi. Ekspertlar fikriga ko'ra, 2030 yilgacha dunyoda yangi infratuzilma uchun 15 trillion dollar investitsiya talab qilinadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda energetika, suv, transport, IT va boshqa infratuzilmalarni yaxshilash uchun yillik ehtiyojimiz yalpi ichki mahsulotning 10 foiziga teng¹.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, "rivojlanayotgan davlatlar infratuzilmasining jami iqtisodiy infratuzilma investitsiyalari hajmini 2030-yilgacha har yili 4 trillion dollargacha oshirish kerak". Bu esa tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmadan foydalanishni takomillashtirish masalasining dolzarbligini namoyon etadi.

Tadbirkorlik faoliyatida raqobatbardoshlilikni oshirishda infratuzilma tizimini kengaytirish va takomillashtirish muammolarining turli jabhalariga qaratilgan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Moliyalashtirish taqchilligi sharoitida infratuzilmani

¹ 25.09.2024 йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Осиё инфратузилмавий инвестициялар банки Бошқарувчилари кенгашининг тўққизинчи йиллик йиғилишидаги нутқи

rivojlantirish, zarur infratuzilmani yaratishda davlat va xususiy sektor investisiyalar jalb etish, infratuzilmadan samarali foydalanish darajasini belgilab beruvchi omillarni aniqlash, ularning tadbirkorlikni rivojlantirishda raqobat muxitiga ta'sirini ochib berish muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqotning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sog'lom raqobat sharoitini ta'minlash va ularning faoliyati uchun zarur infratuzilmani yaratish yuzasidan muhim chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan ochiq muloqotida infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq muammolar biznesni boshlash yoki rivojlantirish yo'lidagi eng katta to'siq sifatida ko'rsatilib, bu kabi muammolarni tizimli bartaraf etish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish borasida vazifalar belgilab berildi.

Ushbu davlat dasturlarini amalga oshirish va infratuzimlarni rivojlantirish maqsadida Prezident tomonidan tasdiqlangan qarorda, 2022–2024-yillarda ijtimoiy va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida 76,8 trillion so'm (7 milliard dollardan ortiq) sarmoya kiritish belgilangan. Mazkur qaror va davlat dasturlarining yanada samaradorligini oshirish uchun tadbirkorlik infratuzilmasi va uning ishlab chiqarish samaradorligi, ularni mamlakat ichida va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq jarayonlarni o'rganib, statistik tahlilini yuritish, prognozlashtirish va tizimli uslubiy jarayonlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni raqobatbardoshligini oshirishda infratuzilmaning tutgan o'rnini tahlil etish bo'yicha Mustaqil davlatalar xamdo'stligi mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.I.Mokretsova, O.A.Lomovseva, T.A.Yakushkina, S.M.Kulish, Kovács, György, K.Rong, Z.Liu, Y.Shi, H.Li, Douglas Zhihua Zeng, N. Ghazzawi, A.B.Abeberese, C.G.Ackah, Yoshino, Naoyuki ilmiy izlanishlar olib borgan. Infratuzilmani rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari.

O'zbekistonlik olimlardan R.X.Karlibatva, M.M.Tashxodjayev, Z.A.Ashurov, Habibullo Hasanov, F.Jurayev va U.Abidhadjayev kabi olimlarning ilmiy nashrlarida o'z aksini topgan.

Infratuzilmani rivojlantirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda bahsli, yetarlicha ilmiy o'rganilmagan holatlar mavjud.

“Iqtisodiy infratuzilma” atamasi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va jadallashtirish ushuni zarur bo'lgan yo'llar, telekommunikatsiyalar, yelektr liniyalari, avtomobil yo'llari, poyezdlar, dengiz portlari, aeroportlar ta'minoti va sanitariya kabi infratuzilma turini anglatadi (Fourie, 2006). Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma

deganda, inson farovonligi va turmush darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan infratuzilma shakllari tushuniladi. Bunday ijtimoiy infratuzilma aholining sog'lig'ini saqlash, ta'lim va madaniyat me'yorlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy infratuzilmaga parklar, kutubxonalar, shifoxonalar va universitetlar kiradi.

Natijalar va muhokamalar

hozirgi kunda dunёda мураккаб геосиёсий вазият сақланиб қолаётганини, глобал иқтисодиётда беқарорлик кучайиб, озиқ-овқат ва энергия ресурслари тақчиллиги ортиб, экологик муаммолар кескинлашиб бормоқда. Маҳсулот етказиб беришнинг анъанавий логистика занжирлари бузилмоқда, бу эса хомашё ресурслари ва истеъмол товарларининг қимматлашувига олиб келиб,

Tranzit O'zbekiston uchun ham, yo'lovchilar va tovarlarni tashishda o'zining transport tizimiga tayanadigan qo'shnilar iqtisodiyoti uchun muhim bo'lib qolmoqda. Tojikiston va Qirg'iziston temiryo'l tarmog'ining janubiy qismi uchun yagona xalqaro aloqa O'zbekistonning janubi, temiryo'l tarmoqlari orqali tranzitga tayanadigan ikki qo'shni davlat O'zbekiston orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistondan tovarlarni tashish o'ta qimmat bo'lib qolmoqda: Germaniyada xuddi shunday imkoniyatdan taxminan 30 AQSH dollariga ega bo'lish mumkin, holbuki O'zbekistondan jahon yalpi ichki mahsulotining 20 foizini olish uchun bir tonna mahsulot uchun bir marta 175 AQSH dollari kerak bo'ladi (XTF, 2019). 2012-yildan buyon Toshkent va Samarqand o'rtasida harakatlanayotgan "Afrosiyob" tezyurar poyezdi 2016-yilda Buxoroni ham qo'shib kengaytirildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikasi bilan avtomobil va chegara o'tish joylarini kengaytirdi (ETTB, 2022).

O'zbekistonda temiryo'llar shaharlararo yo'lovchi tashish va yuk tashish bozorida ustunlik qiladi (Jahon banki, 2014). So'nggi o'n yil ichida temiryo'llar orqali yiliga 15 milliondan ortiq yo'lovchi va 60 million tonna yuk tashildi. Qo'shni davlatlar bilan solishtirganda, temir-yo'l chastotasi sezilarli darajada yuqori.

Ushbu ishlarni davomi sifatida 2030 yilgacha 30 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha katta dastur qabul qilgan bo'lib "Toshkent – Samarqand" va "Toshkent – Andijon" yo'nalishlarida pullik avtomobil yo'llari, "Toshkent – Samarqand", "Samarqand – Navoiy – Buxoro" yo'nalishlarida tezyurar poezdlar uchun yangi temir yo'l qurish loyihalari amalga oshirilishi belgilangan.

O'zbekiston transport infratuzilmasini yuksaltirish, jumladan, yangi avtomobil yo'llari, temir yo'llar, logistika uzellarini qurish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Mintaqaviy aloqani rivojlantirish, ayniqsa Transkaspiy xalqaro transport yo'nalishi (TITR) kabi tashabbuslar orqali O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi asosiy tranzit xabga aylantiradi. Shu bilan birga, energetika sohasidagi islohotlar elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qayta tiklanadigan energiya quvvatlarini oshirish va energiya

samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Birgina logistika sohasi bo'yicha Respublikamizda 2024- yilning 1- avgust holatiga tashish va saqlash xizmatlari sohasida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 25 210 taga yetgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 5 % ga o'sgan. Ularning so'nggi besh yilning mos davrlaridagi dinamikasi quyidagicha:

O'zbekiston infratuzilmasi modernizatsiya qilinar ekan, jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik hisoboti kabi global raqobatbardoshlik indeklari bo'yicha mamlakat reytinglari yaxshilandi. Transport tarmoqlarini yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish va sanoat salohiyatini oshirish biznesni yuritish xarajatlarini kamaytirishga va mamlakatning sarmoyaviy maqsad sifatida jozibadorligini oshirishga yordam berdi.

Ushbu yutuqlarga qaramay, iqtisodiy foyda O'zbekiston hududlari bo'yicha notekis taqsimlangan. Toshkent va Samarqand kabi yirik shaharlar infratuzilma investitsiyalaridan nomutanosib foyda ko'rdi, qishloq va chekka tumanlarda esa sekinroq rivojlanish kuzatildi. Ushbu nomutanosiblik aholining muhim qismini iqtisodiy imkoniyatlar va muhim infratuzilmalardan foydalanish imkoniyati cheklangan holda qoldirib, milliy raqobatbardoshlikni buzishi mumkin.

Infratuzilma loyihalarining geografik konsentratsiyasi mintaqaviy nomutanosiblikni kuchaytirdi. Shahar markazlari jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda, biroq qishloq joylari, xususan, Qoraqalpog'iston avtonom Respublikasi va Farg'ona vodiysi teng darajada foyda ko'rmadi. Bu o'sib borayotgan tengsizlik ijtimoiy birdamlik va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi, chunki bu aholining katta qismini tegishli ish bilan ta'minlanmasdan yoki xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirish, teng raqobat sharoitini yaratib berish uchun infratuzilmani rivojlantirishga yanada inklyuziv yondashuv zarur. Bu hududlarni zamonaviy transport, energetika va kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanishni ta'minlash uchun qishloq va chekka hududlarga investitsiyalarni ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Maqsadli rag'batlantirish orqali mahalliy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, sog'lom raqobat muhitini yaratishga mintaqaning barcha hududlarida o'sish sur'atlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi.

Infratuzilma bo'yicha yuritilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu termin uchun aniq bir qoida sifatida keltirilgan ta'rif mavjud emas. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib infratuzilma uchun quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: infratuzilma – bu ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishi va farovonligi uchun xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yig'indisidir.

Tahlil etilgan fikr va mulohazalardan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishda va

ularni raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib infratuzilmani samarali ishlab chiqarishni va sifatli ijtimoiy hayotni ta'minlash, ishlab chiqarish kuchlarini bir-biri bilan samarali bog'lash, ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir etgan holda, kapital aylanishini tezlashtirish kabi vazifalarini farqlash mumkin.

Davlat tomonidan energetika sohasidagi belgilab olingan maqsadlarga ko'ra, energiya infratuzilmasini tejamkor va yashil energiya tomon yo'naltirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda lekin bularda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar kam kiritilmoqda, loyihalarning ko'pchilik qismini gaz va neft sohalari tashkil etmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida doimiy unumdorlikka erishish uchun yetarlicha infratuzilma sig'imi mavjud. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida hududlarda tadbirkorlik infastrukturasini rivojlantirish uchun ularning xarakteristikasidan kelib chiqish va moliyaviy resurslarni o'zlashtirishning samarali va ta'sirchan mexanizmlarini yaratishga zarurati tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining to'qqizinchi yillik yig'ilishidagi nutqi 25.09.2024 yil

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b

3. Robert M. Grant. Contemporary Strategy Analysis (Wiley), The 9th Edition, John Wiley & Sons, Inc. 2016.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.

5. Claude Diderich. Design Thinking for Strategy: Innovating Towards Competitive Advantage. – Springer Nature Switzerland AG 2020.